



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI  
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI

# O'ZBEKISTON SUD EKSPERTIZASI



Huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy  
**JURNAL**

2024 №1(12)

**O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining 2022-yil 30-apreldagi 315/5-son qarori bilan  
“O'zbekiston sud-ekspertizasi” ilmiy jurnali yuridik va  
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori  
(DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari  
asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy  
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.**

**MUNDARIJA**

Raxmanov Sh.N. Ekspertiza uslubiyotini takomillashtirishda integratsiyaviy maxsus bilimlar.....	2
Jurayev F. X. Ekspertiza xulosalariga baho berishning ayrim masalalari.....	8
O'rozov J.N. Lingvokriminalistika amaliy tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishi sifatida: shakllanishi va taraqqiyoti.....	12
Najmidinova N.Y. Lingvistik ekspertizada obro'sizlantruvchi nutq strategiyasi belgilari.....	20
Musaev O.P., Kolkanov H.T. Особенности становления и развития судебной политолого-лингвистической экспертизы в Узбекистане.....	23
Sattorova D.A. Xatshunoslik ekspertizasini o'tkazishning dolzarb muammolari, sohani rivojlanishining ahamiyati.....	28
Nosirova M.B., Yakubov I.T. Genetik markerlarning hayvonlar seleksiyasida qo'llanilishining ahamiyati.....	34
Akhmedova P.K., Pak E.B. Актуальные проблемы идентификационного исследования синтетических наркотических средств.....	39
Kamilova M.X. Sud-tuproqshunoslik ekspertizasini tayinlash va o'tkazish uchun materiallar tayorlash.....	48
Boisxo'jayeva A.A., Axmedova R.K., Xalilova N.Sh. "Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi" laboratoriysi: kecha va bugun.....	52
Saidov M.S. Kimyoviy o'z-o'zidan yonish hodisasi tadqiqoti va yong'in sababini aniqlash usullari.....	58
Abduvahobov Sh.A. Jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatida mutaxassis va unga qo'yildigan talablar.....	62
Fayzullayev Sh.F. Qonunchilikdagi nomuvofiqliklar va ularning yechimlari.....	67
Musayev M.T. Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarish va uning istiqboldagi vazifalari.....	72
Rajabov Sh.Sh. Yoshlar ongini kiberekstremizm xavfidan himoyalashning axloqiy-huquqiy mezonlari.....	76
Kuranov U. Missionerlikning global miy qosida namoyon bo'lish xususiyatlari.....	81
Paluaniyazov B.Y. Markazi Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari.....	85
Muydinov D.N. Migratsiya borasidagi nazariyalarda ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlar.....	90
Bobokulov Sh. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerdardan ijara huquqi asosida foydalanish tartibi.....	98
Xasanova S.O'. Aksiyadorlik jamiyatlarida yig'ilish qarorlarining mohiyati.....	103

**Muassis:**

**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi  
Respublika sud ekspertiza markazi**

**Bosh muharrir:**

Akram XALILOV

**Bosh muharrir o'rribbosari:**

Uchkun UZAKOV

**Mas'ul kotib:**  
Nuriddin QOLQANOV

**Tahrir hay'ati:**

Akbar TASHKULOV

Sherzod RABIYEV

Jamshidxon NURITDINOV

Istam ASTANOV

Narzulla JO'RAYEV

Odil MUSAYEV

Eshmuxamad KADIROV

Shuhrat RAXMANOV

Saidillaxodja SAIDXODJAYEV

O'ktam SHAKAROV

Nilufar XALILOVA

Nadejda KORABLYOVA

**Mas'ul muharrir:**

Husan NISHONOV

**Dizayner:**

Faxriddin RAHIMOV

**Sahifalovchi:**

Malohat TOSHOVA

“O'zbekiston sud ekspertizasi” huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommavii  
kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda  
1185-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Tahririyat manzili:**

100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani  
Farg'on'a yo'li ko'chasi.

**Telefonlar:**

(71) 209 11 55 (153 ichki), (93) 171 37 74

web-site: [www.sudex.uz](http://www.sudex.uz)

e-mail: [info@sudex.uz](mailto:info@sudex.uz)

[facebook.com/sudex.uz](https://facebook.com/sudex.uz)

[telegram.me/sudex.uz](https://telegram.me/sudex.uz)

Jurnal 29.03.2024-yilda bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Offset usulida bosildi.

Shartli 6,75 bosma taboq. Buyurtma № 001. Adadi 100.

“Reliable Print” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.

# “MATERIALLAR, ASHYOLAR VA BUYUMLAR KRIMINALISTIK EKSPERTIZASI” LABORATORIYASI: KECHA VA BUGUN

*BOISXO'JAEVA*

*Adibaxon Anvarovna,*

*X. Sulaymonova nomidagi Respublika  
sud ekspertiza markazining  
Materiallar, ashyolar va buyumlar  
kriminalistik ekspertizasi  
laboratoriyasi eksperti*

*AXMEDOVA*

*Rakiya Karimovna,*

*X. Sulaymonova nomidagi Respublika  
sud ekspertiza markazining  
Materiallar, ashyolar va buyumlar  
kriminalistik ekspertizasi  
laboratoriyasi mudiri*

*XALILOVA*

*Nilufar Shuxratillayevna,*

*X. Sulaymonova nomidagi Respublika  
sud ekspertiza markazi Sud-ekspertlik  
ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i,  
farmatsevtika fanlari nomzodi*

## ANNOTATSIYA

Maqolada X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining “Materiallar, ashyolar buyumlar kriminalistik ekspertizasi” laboratoriyasining tarixi, unga rahbarlik qilgan va faoliyat olib borgan ustoz-olimlar haqida so‘z yuritilib, mazkur laboratoriyaning sud ekspertizasi sohasidagi ishlarni amalga oshirishdagi o‘ziga xos o‘rnii, hamda laboratoriyaning akkreditatsiyadan o‘tkazilganligi va yangi tur ekspertizalar joriy qilingani ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekspertiza, qonun ustuvorligi, ustoz-olimlar, akkreditatsiya, xalqaro hamkorlik, ilmiy-tadqiqot ishlari.

## АННОТАЦИЯ

В статье описана история лаборатории Центра криминалистического исследования материалов, веществ и изделий, ученые-наставники, которые ее возглавляли, конкретная роль этой лаборатории в области судебной экспертизы, а также аккредитация лаборатории, развитие и внедрение новых видов экспертизы.

**Ключевые слова:** экспертиза, верховенство закона, ученые-наставники, аккредитация, международное сотрудничество, научно-исследовательские работы.

## ANNOTATION

The article describes the history of the laboratory of the Center for Forensic investigations of Materials, Substances and Drugs, the scientist-mentors who headed and supervised it, the specific role of this laboratory in the field of forensic examination, as well as the accreditation of the laboratory, the development and implementation of new types of examination.

**Key words:** expertise, rule of law, mentor-scientists, accreditation, international cooperation, research and development.

Zamon talablari xolisona tergov qilish, odil sudlovni ta’minlash uchun fan va texnika yutuqlariga asoslangan sud-ekspertiza imkoniyatlardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklari kafolatli himoya qilinishida muhim sohaviy yo‘nalishlardan biri bo‘lgan sud ekspertlik faoliyati fuqarolarning ishonchini yanada oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda sud ekspertlik faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohani zamonaviy, yuqori aniqlikdagi tahlil vositalari bilan jihozlash orqali odil sudlovni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, sohani takomillashtirishga doir qabul qilingan Prezidentimizning tegishli farmon va qarorlari asosida qonunchilikka jiddiy o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilmoqda hamda ushbu sohani tubdan takomillashtirish borasida qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, so‘nggi besh yilda soha faoliyatiga oid 2 ta qonun, 4 ta Prezident farmoni va qarorlari, 7 ta Hukumat qarorlari hamda 6 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi mutaxassislarining mazkur soha rivojidagi o‘rni beqiyosdir. Markazda olib borilgan ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlar natijasida keyingi 3 yilda bir qator yangi ekspertiza turlari yaratilib, sud ekspertlik amaliyotiga tatbiq etildi. Markazda amalga oshiriladigan sud ekspertlik turlari 57 tani, mutaxassislik yo‘nalishlari esa 91 tani tashkil etadi.



Sud ekspertizasi sohasidagi ishlarni amalga oshirishda Markazning “Materiallar, ashyolar, buyumlar kriminalistik ekspertizasi” (MABKE) laboratoriyaning o‘ziga xos o‘rni bor. Mazkur laboratoriya 1972-yilda tashkil qilingan bo‘lib, dastlab laboratoriya biologiya fanlari nomzodi Yeva Yakovlevna Vengerskaya boshchilik qilgan va laboratoriyada jami 8 nafar xodim

faoliyat ko‘rsatgan. Keyinchalik kimyo fanlari nomzodi T.X.Islomov, R.K.Axmedova va farmatsevtika fanlari nomzodi N.Sh.Xalilovalar laboratoriya qilib, sud ekspertlik sohasiga o‘zlarining katta hissalarini qo‘shganlar. Shuningdek, ko‘p yillar o‘zlarining bilimlari va salohiyatlari bilan nafaqat laboratoriyaning, balki sud ekspertiza sohasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan: M.N.Kosyakovskaya, T.M.Dyomina, T.X.Xalikov, M.U.Abdullaeva, L.V.Zaxarova, F.U.Kugatova, V.N.Borisov, P.V.Zinovye, X.A.Kamilova, V.M.Nam, M.I.Yusupov, S.P.Redkina, L.A.Muxamedova, F.I.Muminova, A.X.Xasiyatova, P.V.Zagrebneva, Y.A.Mamedova, N.A.Xomenko, O.Y.Shuxratova, D.T.Yuldasheva va hozir faoliyat yuritayotgan ustoz ekspertlar: R.K.Axmedova, M.X.Kamilova, N.Sh.Xalilova va N.V.Korablyova va boshqa bir qancha ustoz-olimlar soha rivoji uchun qoldirgan meroslari, ekspert-shogirdlari uchun qoldirgan bebafo xazinalari, ya’ni ilmiy ishlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari, hammaga ibrat bo‘la oladigan hayot yo‘llari, o‘nlab shogirdlari, ular uchun yo‘lchi yulduzdek to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib turuvchi nasihatlari, maslahatlari, ularning zamirida yotuvchi mehr-oqibat, bir so‘z bilan aytganda, buyuk, tavof aylashga arziydigan ilm ila qurilgan qo‘rg‘onlari meros bo‘lib qoldi va hozirgi kunda yosh ekspertlarga namuna bo‘lib kelmoqda.



MABKE laboratoriyasida o‘tkaziladigan ekspertiza turlaridan “Sud tovarshunoslik” va “Yong‘in texnikaviy” ekspertiza turlariga huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan talab kuchayganligi sababli, ushbu ekspertiza turlari 2019-yilning 1-iyun kunidan MABKE laboratoriysi tarkibidan alohida bo‘lim va laboratoriya bo‘lib ajralib chiqdi hamda bugungi kun talablariga muvofiq ravishda faoliyat olib bormoqda.

Hozirgi kunda laboratoriya qilib kelmoqda.

Markaz laboratoriyalari xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida ISO/IEC 17025 xalqaro standartiga muvofiq akkreditatsiyadan o‘tkazilib, muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘ldi.



Xususan, MABKE laboratoriysi ushbu sohada ham birinchilardan bo'lib 2019-yilda xalqaro akkreditatsiyadan o'tdi va sertifikatga ega bo'ldi. Mazkur akkreditatsiya Markazga tadqiqotlarni xalqaro standartlar darajasida bajarish imkonini beradi hamda akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriylar tomonidan berilgan xulosalarning xalqaro miqyosda shubhasiz tan olinishi, fuqarolarimizning huquq va manfaatlari nafaqat mamlakatimiz hududida, balki xalqaro sudsarda ham ishonchli himoya qilinishiga hamda odil sudslovni ta'minlashga xizmat qiladi.

Markaz rahbariyati tomonidan bir qator xorijiy sud ekspertiza muassasalari hamda xalqaro tashkilotlar bilan ikki tomonlama hamkorlik o'rnatilishi barobarida, laboratoriya da sud-ekspertlik faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilib, laboratoriya ekspertlari tajribalarini oshirish va bilim almashinish uchun qator davlatlarda malaka oshirib qaytdilar.





Dastlabki tashkil qilingan davrlarda laboratoriya da 5 tur ekspertizalar bajarilgan bo'lib, hozirgi kunda bu ekspertizalar soni 23 taga yetdi. Bularidan:

1. Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi.
2. Lok-buyoq materiallari va lok-bo'yoq qoplamalari ekspertizasi.
3. Neft mahsulotlari va yonilg'i-moylash materiallari ekspertizasi.
4. Giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar, prekursorlar ekspertizasi.
5. Tarkibida spirt bo'lgan suyuqliklar va ularning yuqlari ekspertizasi.
6. Tuproqshunoslik ekspertizasi.
7. Metall va qotishmalardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi.
8. Sud-botanik ekspertizasi.
9. Mikrozarrachalar ekspertizasi.
10. Sud zoologik ekspertizasi.
11. Boshqa biologik(ornitologik, sud ixtiologik) ekspertizalar.
12. Polimer materiallari va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi.
13. Tabiiy minerallar ekspertizasi.
14. Shishali buyumlar ekspertizasi.
15. Tabiatni noaniq moddalar ekspertizasi.
16. Zaharli ximikatlar va og'ir metallar tuzlari (ekologik) ekspertizasi.
17. Maxsus markerlar ekspertizasi.
18. Oziq-ovqatlar ekspertizasi.
19. Boshqa tur obyektlar ekspertizasi.
20. Mineral o'g'itlar ekspertizasi.
21. Portlovchi (qo'lbola va brizant) moddalar ekspertizasi.
22. O'simlik moylari ekspertizasi.
23. Ichimlik suvlari ekspertizasi turlari bo'yicha xulosalar berilib kelinmoqda.

Ekspertiza turlari sonining ortib borishi bilan bir qatorda sud-tergov organlaridan tayinlanayotgan ekspertizalar soni ham tobora oshib bormoqda. Laboratoriya da xolis va aniq xulosalar berishni ta'minlovchi zamonaviy texnik bazalarning mavjudligi, o'z navbatida tadqiqotlar o'tkazishda uning yuqori ilmiy saviya, yuksak ilmiy salohiyat bilan bajarilishiga xizmat qilib kelmoqda. Laboratoriya bir qator nufuzli chet el firmalarining zamonaviy yuqori sezuvchanlikka ega analistik uskunalari bilan jihozlangan.



Yuqoridagi vazifalar bilan bir qatorda, MABKE laboratoriyasida turli yo'nalishlar bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazishda qo'llaniladigan yangi uslubiyotlarni yaratishga qaratilgan bo'lib, laboratoriya xodimlari tomonidan giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar, neft mahsulotlari va yonilg'i-moylash materiallari, lok-bo'yoq qoplamlari, tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlarni kriminalistik tekshirish, o'simlik moylari, metallar, qotishmalar va ulardan tayyorlangan buyumlarni tekshirish ekspertizasi, sud ekologiya ekspertizasi obyektlari (suv va tuproq) va hokazo ekspertiza turlari bo'yicha kompleks uslubiyotlar ishlab chiqilib, amaliyatga tatbiq qilingan.

Laboratoriya ekspertlari tomonidan muntazam ravishda ilmiy va amaliy ekspertlik tadqiqotlari natijalari asosida jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish maqsadida, ularning sabablari va holatlarini o'rghanish bo'yicha profilaktik tavsiyanomalar va ko'rsatmalar beriladi. Shuningdek, laboratoriya xodimlari tomonidan doimiy ravishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga ma'ruzalar, seminar mashg'ulotlari, davra suhbatlari o'tkazilib, aholining huquqiy ongini oshirish maqsadida yig'ilishlar va uchrashuvlar olib boriladi, ommaviy axborot vositalari(televideniye va radio)da chiqishlar qilinadi.

So'nggi yillarda bir nechta viloyatlarda mazkur laboratoriyaning filiallari ochilishi munosabati bilan, ustoz-shogird an'anasisiga muvofiq Markazda faoliyat yuritayotgan ustoz ekspertlar yosh iqtidorli xodimlarga o'zlarining bilimlari va tajribalarini o'rgatib kelmoqdalar.

Markazning mazkur laboratoriysi o'z negizida tajribali mutaxassislar va iqtidorli yosh xodimlarni mujassamlashtirgan bo'lib, uning yuqori malakali va ahil jamoasi adolat ishiga sadoqat bilan xizmat qilish an'anasinu munosib davom ettirgan holda, tergov idoralariga tergov muvaffaqiyatli yuritilishida va sudlarga odil sudlovnii ta'minlashda o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 5-iyundagi 6256-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi 2023-yil 21-fevraldaggi №73-sonli Namunaviy nizom.
3. Sud ekspertizasiga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Adolat, 2012.
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining 50 yilligi munosabati bilan chop etilgan jurnal. – Toshkent, 2001.
5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining 60 yilligi munosabati bilan chop etilgan jurnal, Toshkent, 2011-y.
6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi "O'zbekiston sud ekspertizasi" jurnali, Toshkent., 2021-y (№1).